

## ISLOM MOLIYASI ORQALI LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHGA OID ILMYI ADABIYOTLAR TAHЛИI

*Shamansurova Zilola*

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

*Muxtorova Nafisa Ilxomovna*

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada islomiy moliyasi instrumentlari va loyihalarni islam moliyasi orqali moliyalashtirish hamda uning an'anaviy moliyalashtirish tizimidan farqlari va afzallikkari bayon qilingan hamda turli ilmiy ishlar o'rganib chiqilgan va tahlil qilingan. Ilmiy ishlarni o'rganish va tahlil qilish jarayonida xalqaro tajribalar o'rganilib, loyihalarni islam instrumentlari orqali moliyalashtirishni yanada takomillashtirish yo'llari keltirib o'tilgan. Bunda ScienceDirect, Google Scholar va Researchgate doirasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarndan mavzuga doir 54 ta maqola o'rganib qiligan hamda ulardan 24 tasi ushbu maqolada o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** islam moliyasi, loyihalarni moliyalashtirish, infratuzilma, mushoraka, an'anaviy moliya, sherikchilik, kapital.

## НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ФИНАНСИРОВАНИЮ ПРОЕКТОВ ЧЕРЕЗ ИСЛАМСКИЕ ФИНАНСЫ

*Шамансурова Зилола*

Ташкентский государственный экономический университет

*Мухторова Нафиса Илхомовна*

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной статье изучены и проанализированы различные научные работы, в которых описаны инструменты исламского финансирования и финансирование проектов посредством исламского финансирования, а также его отличия и преимущества от традиционной системы финансирования. В ходе изучения и анализа научных работ был изучен международный опыт и представлены пути дальнейшего улучшения финансирования проектов посредством исламских инструментов. При этом из научных работ, выполненных в рамках Science Direct, Google Scholar и Researchgate, было изучено 54 статьи по теме, из них 24 нашли отражение в данной статье.

**Ключевые слова:** исламские финансы, проектное финансирование, инфраструктура, мушарака, традиционные финансы, партнёрство, капитал.

## ANALYSIS ON FINANCING PROJECTS THROUGH ISLAMIC FINANCE

**Shamansurova Zilola**  
*Tashkent State University of Economics*  
**Mukhtorova Nafisa Ilhomovna**  
*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** This article has studied and analyzed various scientific works that describe the instruments of Islamic finance and project financing through Islamic finance, as well as its differences and advantages from the traditional financing system. During the study and analysis of scientific works, international experience was studied and ways to further improve the financing of projects through Islamic instruments were presented. At the same time, from the scientific works carried out within the framework of ScienceDirect, Google Scholar and Researchgate, 54 articles on the topic were studied, 24 of which were reflected in this article.

**Key words:** islamic finance, project finance, infrastructure, musharaka, traditional finance, partnership, capital.

### **Kirish.**

Islom moliyasi o'ziga hosligi bilan an'anviy moliyadan ajralib turadi. So`ngi yillarda islam moliyasiga qiziqish ortib bormoqda. Bu qiziqish nafaqat musulmon aholisi ko`p bo`lgan mamlakatlarda balki no musulmon bo`lgan mamlakatlarda ham qiziqish uy`gonmoqda. Juda ko`p mamlakatlarda an`anaviy moliyaga parallel ravishda o`zining moliya tizimiga islam moliysini tadbiq qilmoqda. Bunga qo'shimcha qilish joizki, Islomiy moliya tarmog'i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun albatta moliya tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev islam moliyasi haqida shunaday fikr bildirganlar «Islom olami ulkan iqtisodiy, investision salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to'g'ri foydalanish, islam hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investision hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo'llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qiladi» (Baydaulet, 2021) deya takidlaganlar.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Islomiy moliya tarmog'i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan ushbu tarmog' ustida ilmiy izlanishlar soni yildan-yilga tobora ortib bormoqda.

Islom moliyasi va infratuzilmalarni moliyalashtirish bo'yicha ilmiy izlanish olib borganlardan biri bu Mohamad Torik Langlang Buana va boshqalar (2023) "Islom bankida infratuzilma pudratchilarini moliyalashtirish" haqidagi adabiyotlar tahlillarida qurilish islomiy moliya sohasida emas, balki turli sohalardagi ko'plab mualliflarning asosiy tadqiqot mavzusiga aylanganligi va Infratuzilma pudratchilarini moliyalashda bank sanoati butun infratuzilma loyihasini yoki infratuzilma loyihasining imkoniyatlarini baholash zarurati bilan duch kelishi mumkinligini aytgan. Ushbu maqolada infratuzilma qurilishi sektorini islam banklari, xususan, infratuzilma pudratchilari tomonidan moliyalashtirish bo'yicha olimlarning ilmiy

maqolalarining tadqiqot mavzusi tahlil qilingan. Islom banki moliyasiga oid ko'plab maqolalarda fiqh, huquq va iqtisodiy jihatlar muhokama qilinganligi aytilgan. Ushbu izlanishda 2001 yildan 2021 yilgacha Scopus, Ebscohost va ProQuest kabi uchta ma'lumotlar bazasini tekshirish orqali o'tkazilgan tizimli adabiyotlarni ko'rib chiqilgan. Natija islom banklari tomonidan pudratchi moliyalashtirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarda bo'shliq mavjudligini ko'rsatgan. Shu bois, tadqiqot infratuzilma pudratchilarining islom banklari tomonidan moliyalashtirishini o'rganishni taklif qilish bo'yicha keyingi ishlarni amalgalashirish zarurligini ko'rsatgan. Hamda ushbu tadqiqot infratuzilma pudratchilarini islomiy moliyalashtirish usulidan foydalangan holda taklif qiligan yechimdan foydalangan holda moliyalashtirish masalasini yanada o'rganishga qaratilgan.

Natijalar va muhokamalar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, 1999-2022 yillar davomida islom bankchiligidagi moliyalashtirish risklari bo'yicha ilmiy nashrlar soni yildan-yilga sezilarli darajada oshganini ko'rsatgan. Jami nashrlar 227 ta jurnal maqolalari edi. Shariat bankida tavakkalchilikni moliyalashtirish bo'yicha 8 ta asosiy tadqiqot mavzusi mavjud, xususan: risklarni boshqarishning ta'rifi va maqsadlari; xavf monitoringi; strategiya, xavf darajasi, siyosatlar, protseduralar, chegaralar; identifikasiya, monitoring, nazorat, axborot tizimlari; xavfni o'lchash; xavfni kamaytirish; xavf omillari; va muammolar va xavf ta'siri. Shu bilan birga, shariat bankida moliyaviy tavakkalchilik bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun olingan bo'shliq tadqiqotlari quyidagilardan iborat: moliyalashtirish portfelini tahlil qilish, moliyalashtirish sifatini baholash, risklarni boshqarish strategiyalari, risk modelini ishlab chiqish, mamlakatlar o'rtasidagi tavakkalchiliklarni moliyalashtirishning qiyosiy tadqiqotlari va risklarni boshqarishni moliyalashtirish uchun texnologiyani ishlab chiqish.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur izlanishimiz mavzu doirasida amalgalashirishga oshirilgan ilmiy ishlarni o'rganib chiqish va tahlil qilishga yo'naltirilganligi uchun bibliografik tadqiqot usulidan foydalanganmiz. Bunda ScienceDirect, Google Scholar va Researchgate bazalaridan tegishli kalit so'zlar bilan qidirish orqali 54 ta maqola ajratib olingan va o'rganilgan hamda ulardan 24 tasi mazkur ilmiy ishimizda o'z aksini topgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Nur Amila Van Abdullah Zavavi va boshqalar (2013) o'zlarining "Islom loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari" haqidagi maqolasida nega islom loyihalarini moliyalashtirish taklif etilayotgan yangi PF2 uchun ideal moliyalashtirish modeli ekanligi ko'rsatilgan. Hamda buning sababi Buyuk Britaniyaning Milliy audit idorasini tomonidan ma'qullanganidek, PF2ni moliyalashtirishga ega bo'lishi kerak bo'lган xususiyatlarga asoslanganligi, ular orasida bunday moliyalashtirish arzon bo'lishi va risklarni o'zlashtirishga tayyor bo'lishi kerakligi aytib o'tilgan. Buning natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy loyihalarini moliyalashtirishdan foydalanish pul qiymatini oshirish va kapital qiymati yo'qligi sababli yirik mega infratuzilma loyihalarini arzonlashtiradi. Bundan tashqari, kapital qiymati PFI loyihalarining yakuniy qiymatini belgilovchi eng ta'sirli omillardan biri ekanligi ko'rindi. Foizsiz maqomi bilan, moliyaviy inqirozdan keyingi iqtisodiy tiklanish davrida loyihani moliyalashtirish dunyosi talab qiladigan ideal moliyalashtirish hisoblanadi.

Aulia Nurul Huda (2012) "Rivojlanayotgan mamlakatda kichik va o'rta korxonalar uchun islomiy moliyalashtirish sxemasining rivojlanishi: Indoneziya misoli" nomli ilmiy izlanishida kichik va o'rta korxonalar subyektlari, xususan Indoneziyadagi asosiy adabiyotlarni, shuningdek, Indoneziyadagi islomiy moliyalashtirishning joriy amaliyoti o'rganilgan. Ilmiy izlanishida dastlab islomiy bank tizimi va uning Indoneziyadagi joriy amaliyoti muhokama qilingan va Kichik va o'rta korxonalar sub'ektlari moliyalashtirish uchun zarur bo'lган xususiyatlarni o'rganishga harakat qilingan. Islom banklari xulq-atvori va kichik va o'rta biznes uchun zarur bo'lган moliyalashtirish xususiyatlari bo'yicha bilimlarga ega bo'lgandan so'ng,

ularga moliyaviy kirishni ta'minlashda islomiy foydani taqsimlash sxemasi qo'llanilsa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qilgan. Xulosa o'rnilida, muammolar aniqlangandan so'ng, aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun biznes, ilmiy doiralar va hukumatni o'z ichiga olgan tizim taklif etilgan.

Nadim Ul Haqu va Abbas Miraxor (1998) "Islom iqtisodiyotida davlat moliyalashtirish vositalarining rivojlanishi" nomli tadqiqotida, islom iqtisodiyotida davlat moliyalashtirish vositasini ishlab chiqishning eng maqbul yondashuvini taqdim etadi. Davlat infratuzilmasi va rivojlanish loyihamalarini moliyalashtirish uchun resurslar milliy ishtirok hujjatini chiqarish orqali safarbar etilishi mumkinligi va bu vosita pul-kredit boshqaruvi vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkinligini aytib o'tilgan. Bundan tashqari, bunday vositani joriy etish asosida yotgan turli kontseptual masalalar va tegishli daromad stavkasini hisoblash usullari muhokama qilinadi.

Mohamad Torik Langlang Buana va boshqalar (2023) islom banklarida infratuzilmalarni moliyalashtirish haqidagi maqolalar sharxida, Infratuzilma pudratchilarini moliyalashda bank sanoati umumiyligi infratuzilma loyihasini yoki infratuzilma loyihasining imkoniyatlarini baholashga duch kelishi mumkinligi va infratuzilma qurilish sektorini islom banklari, xususan, infratuzilma pudratchilari tomonidan moliyalashtirish bo'yicha olimlar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalardagi o'rganish mavzusini tahlil qilingan. Islom banklari tomonidan moliyalashtirish bilan bog'liq ko'plab hujjatlar fiqh, huquq va iqtisodiy jihatlarni muhokama qilinishligi aytib o'tilgan. Hamda ushbu ilmiy izlanish, islomiy moliyalashtirish usulidan foydalangan holda taklif qilingan yechim bilan moliyalashtirishda infratuzilma pudratchilari muammosi bo'yicha ob'ekt bilan keyingi tadqiqotlarni o'tkazishga qaratilgan. Bu tizimli adabiyotlarni ko'rib chiqish bo'lib, 2001-yildan 2021-yilgacha Scopus, Ebscohost va ProQuest kabi uchta ma'lumotlar bazasini tekshirish orqali o'tkazilgan. Natijada islom banklari tomonidan pudratchilarni moliyalashtirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarda bo'shilq borligi aniqlangan.

Rishad Sadikot (2012) "Islom loyihamalarini moliyalashtirish: yirik infratuzilma loyihamalarini shariatga muvofiq moliyalashtirish" nomli ilmiy izlanishida, keng ko'lamli infratuzilmani rivojlantirishni moliyalashtirish uchun an'anaviy loyihamalarni moliyalashtirishni to'ldirish uchun shariatga muvofiq moliyalashtirishdan qanday foydalanish mumkinligi muhokama qilgan. Ushbu tahlil an'anaviy loyihamalarni moliyalashtirish, islom moliyasining asosiy tamoyillari va uning loyihamalarni moliyalashtirish va infratuzilmani rivojlantirish bilan qanday bog'liqligi haqida to'liq ma'lumot beradi. U "Project Equate" tahlili bilan yakunlanadi. An'anaviy moliya bilan raqobatbardosh bo'lgan holda islomiy moliya sohasida "islomiy" xususiyatni saqlab qolish zarurligini ta'kidlagan.

"Musulmon bo'limgan davlatlardagi infratuzilma loyihamalari uchun Islomiy moliyadan foydalanish" nomli maqolada, infratuzilma talabi va mavjud moliyaviy manbalar o'rtasidagi bo'shilqni islomiy loyiha moliyasidan foydalanish orqali to'ldirishga intiladi. Ushbu maqolada aksariyat mamlakatlarda islomiy moliyaga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonunlar yo'qligi ko'rib chiqilgan va "Islomiy moliyadan shariat tamoyiliga zid bo'limgan amaldagi qonunlar va qoidalardan foydalangan holda infratuzilma loyihamalarini moliyalashtirishda foydalanish mumkin" degan fikr aytib o'tilgan Islom moliyasi musulmon bo'limgan madaniyatlarga zid emasligi, aksincha, uning axloqiy va adolatlilik printsipi va infratuzilma talablarini va xususiyatlariga mos kelishi, musulmon va musulmon bo'limgan investorlar uchun an'anaviy obligatsiyalar bilan solishtirganda sukuk to'g'ri tanlovligi aytib o'tilgan. Musulmon bo'limgan mamlakatlarda islomiy moliyani joriy etish davrida hali ham ko'plab muammolar mavjudligi ko'ringan. Ushbu maqolaning xulosaviy natijasi shuni ko'rsatdiki, jahon infratuzilmasiga bo'lgan ehtiyojni moliyalashtirish uchun islom moliyasi va raqobatbardosh jahon sukuk bozorini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan yagona qonunchilik bazasini, islom hisobi tamoyilini, narx mexanizmini, qoidalarni va soliq siyosatini ishlab chiqish

kerak. An'anaviy moliya tizimi bilan birgalikda ishlaydigan qo'shimcha moliyaviy manba sifatida (Paolo Pietro Biancone va boshqalar, 2015)

"Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishning islom vositalari: muammolar va istiqbollar" nomli ilmiy tadqiqotda, aholisi ko'p bo'lgan Rossiya Federatsiyasining ta'sis sub'ektlarida kichik va o'rta biznesning asosiy kapitaliga investitsiyalar dinamikasini tahlil qilish kichik va o'rta biznesning rivojlanishi asosida moliyalashtirilishi mumkin bo'lgan investitsiyalar uchun sezilarli va barqaror o'sib borayotgan ehtiyoj o'rganilga. Xulosa sifatida: Rossiyada shariat qoidalariga muvofiq kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun bir qator qonunchilik tashabbuslarini, shu jumladan soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan tashabbuslarni amalga oshirish kerakligi, bu banklarga "islom darchalar" ni ochish va islom mintaqalarida mashhur moliyaviy vositalarni etkazib berishni kengaytirish imkonini berishligi aytib o'tilgan (Trachenko va Alhassan, 2016).

Ushbu ilmiy izlanishda, loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish o'zaro bog'liqligi o'rganilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik yangi infratuzilmalarni moliyalashtirishning asosiy manbalari hisoblangan banklar, hukumatlar va ko'p tomonlama rivojlanish banklari o'rganilgan. Ilmiy izlanish natijasida standartlashtirilgan infratuzilma obligatsiyalari orqali qayta moliyalash likvid global aktivlar sinfiga olib boradigan eng yaxshi yo'l bo'lishi mumkinligi aytilgan. Tartibga solish banklarning qurilishni moliyalashtirishga imkon beradigan adekvat likvidligi va kapitalini saqlab turishini ta'minlashi va keyingi qayta moliyalash uchun rag'batlantirishni ta'minlashi kerakligi ham takidlangan. Biz milliy infratuzilma jamg'armalari standartlashtirishni rag'batlantirishi va xususiy moliyalashtirishni jalb qilish uchun loyihalarni ishlab chiqishni osonlashtirish va etkazib berishni yaxshilash uchun MDBlar uchun markazlashtirilgan nuqta bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlangan. (Juan Ketterer Andrev Povel, 2018)

Ayomi Rarasati va boshqalar (2018) "Infratuzilma loyihalarini islomiy moliyalashtirish va uni amalga oshirishdagi to'siqlar" mavzusidagi ilmiy maqolasida, asosan islom mamlakatlari va rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini islomiy moliyalashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar o'rganilgan, Ushbu amaliy tadqiqot Indoneziyaga qaratilgan. Indoneziya aholisining ko'pchiligi musulmon bo'lgan rivojlanayotgan mamlakat bo'lganligi sababli, islomiy loyihalarni moliyalashtirish Indoneziya infratuzilmasini rivojlantirishda muqobil moliyalashtirish uchun ham mos variant bo'lishi mumkinligini aytib o'tilgan. Ushbu maqola infratuzilma loyihalarini rivojlantirish uchun islomiy moliyani amalga oshirishdagi to'siqlarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijasidan xulosa qilib aytish mumkinki, islom loyihalarini moliyalashtirishni amalga oshirish yo'lidagi asosiy to'siqlar islomiy loyihalar moliyasi tushunchasini tushunmaslik, islomiy moliyadan foydalanishga qarshilik, investorlarning xulq-atvori hamda foyda olishga yo'naltirilgan va tavakkalchilikdan bosh tortish kabi xususiyatlari ekanligi aniqlangan , bu infratuzilma manfaatdor tomonlarning shariatga mos sxemadan foydalanish afzalligiga ta'sir qilishi mumkinligi ta'kidlangan.

Paolo Pietro Biancone (2015) o'zining "Davlat infratuzilmasini shariatga muvofiq moliyalashtirish" nomli maqolasida shariatga muvofiq moliya davlat kommunal loyihalari uchun moliyaviy manba sifatida potentsial imkoniyat ekanligini ta'kidlanadi. Ushbu hujjat shariatga muvofiq moliyalashtirish tamoyillari va mezonlarini o'rganadi, turli moliyalashtirish vositalarini ko'rib chiqadi va butun dunyo bo'ylab turli kommunal infratuzilma loyihalarida ulardan foydalanishni umumlashtiradi. Izlanish natijasida xulosa qilib aytish mumkinki, shariatga rioya qilish barcha operatsiyalar islomiy moliyaviy tamoyillarga muvofiq bo'lishini muhim.

Naufal va Suharti (2020) "Shariat kapital bozorlarining rivojlanishi va uning davlat loyihalarini moliyalashtirishdagi roli" nomli maqolada, davlat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun shariat kapital bozoridan foydalanishning maqsadga muvofiqli o'rganilgan va Indoneziyada shariat kapital bozorini rivojlantirish uchun bilim va g'oyalarni taqdim etgan. Ushbu tadqiqot faqat shariat kapital bozorlarining rivojlanishi va bozor savdosi

hajmini hukumatning 2015-2019 yillarga mo'ljallangan infratuzilmani rivojlantirish rejaliari bilan solishtirganda ko'rib chiqgan Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shariat kapital bozori Indoneziyada juda yaxshi rivojlanmoqda, ammo u an'anaviy bozorga nisbatan eng kichik hisoblanadi. Shuning uchun hukumat, bu holda OJK (Moliyaviy Xizmatlar Vakolati) olimlar, voizlar va imomlarni shariat kapital bozorlarini ommaga targ'ib qilishda ishtirot etishga taklif qilishi va ularga imkon berishi kerak.

Ayomi Dita Rarasati va boshqalar (2013) o'zlarining "Indoneziya infratuzilma loyihalarida shariatga muvofiq moliyalashtirish" nomli maqolasida Dunyodagi eng katta muslimon aholisi sifatida shariatga muvofiq moliyalashtirish Indoneziya uchun infratuzilmani moliyalashtirish manbasi sifatida ulkan salohiyatni taqdim etganligi sababli, ushbu potentsialni ro'yobga chiqarish uchun uni qabul qilishga yo'naltiruvchi asos kerak. Shuning uchun ushbu maqola Indoneziyadagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun islomiy moliyaning potentsial amalga oshirilishini muhokama qiladi. Qiyosiy tahlil orqali ushbu maqola islom tamoyillarini Indoneziya infratuzilmasi loyihalarini moliyalashtirishga qanday kiritish mumkinligini ko'rsatadi.

Jean-Yves Moisseron va boshqalar (2015) o'zlarining "Islom moliyasi" adabiyot sharhida islomiy moliya va uning tashqi dunyo o'zgarishlariga moslashish qobiliyatiga oid adabiyotlarda ko'rib chiqiladigan asosiy mavzular shrxlangan, Ulardan islom tafakkuri tarixining bir necha bosqichlari o'rganilgan. Bundan tashqari, ta'riflar va nazariy asoslar va asosiy moliyaviy operatsiyalar chuqur tarzda o'rganilgan. Islom banklari bilan bog'liq jarayonlarni ham ush maqila o'z ichiga oladi. Hamda oxirgi bo'lmlarda, moliyaviy tartibga solish va kelajakdagi istiqbollar o'rganib chiqilgan.

Ushbu "Yirik infratuzilma loyihalarini islomiy moliyalashtirish" nomli maqolada, islomiy moliya bozorining o'sib borayotgani va uning muslimon dunyosidagi infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun muhim kapital manbaiga aylanayotgani ko'rib chiqilgan. Maqola islomiy moliyaning asosiy ijarachilari va yirik kapital loyihalari bilan bog'liq muammolar bilan tanishtirish bilan boshlangan. Keyin islomiy loyihalarni moliyalashtirish sohasidagi innovatsiyalar va innovatsiyalarni amalga oshirishda duch keladigan muammolar bilan tanishtirgan. Maqola islomiy moliyadan foydalangan holda infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha tanlangan so'nggi loyihalar tavsifi bilan yakungan. Jasper Camacho.

Alan J. Alexander (2011) Ushbu "G'arb hamkorliklari bilan islom loyihalarini moliyalash" nomli maqolasida, Islom loyihalarini moliyalashtirish haqida ma'lumotlar, islom loyihalarini moliyalashtirish salohiyati, islom aktivlari bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar Islomiy moliyalashtirish vositalarini qo'llash va Islom olamidagi loyihalar o'rgangan. Ushbu izlanish natizasida, "Shariatga rioya qilishning kaliti islomiy kreditorlarning moliyaviy tranzaksiya asosidagi loyiha aktivlariga egalik qilishda davom etishini rag'batlantirishdan iborat" degan xulosaga kelingan.

"Islom moliyasining tendentsiyalari va muammolari" nomli ilmiy izlanishda muallif, islom moliyasining tamoyillari va islom banklarining huquqiy va tartibga solish masalalari to'g'risida o'rgangan. Bundan tashqari, islom moliyasida moliyaviy barqarorlik va huquqiy muammolarni o'rgangan. Hamda ushbu muammolarni va masalarni tahlil qilish jarayonidan kelib chiqib ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta takliflar bergan. (Heiko Hesse va boshqalar, 2008)

Ushbu "Shariat kapital bozorlarining rivojlanishi va uning davlat loyihalarini moliyalashtirishdagi roli" nomli maqolada davlat infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun shariat kapital bozoridan foydalanishning maqsadga muvofiqligini o'rganilgan va Indoneziyada shariat kapital bozorini rivojlantirish uchun bilim va g'oyalarni taqdim etgan. Hamda faqat shariat kapital bozorlarining rivojlanishi va bozor savdosi hajmini hukumatning 2015-2019-yillarga mo'ljallangan infratuzilmani rivojlantirish rejaliari ko'rib chiqilgan. Ushbu izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, shariat kapital bozori Indoneziyada juda yaxshi rivojlanmoqda, ammo u an'anaviy bozorga nisbatan eng kichik hisoblanadi. Shuning uchun

hukumat, shariat kapital bozorlarini ijtimoiylashtirishda ishtirok etish uchun olimlar va imomlarni taklif qilish va ularga imkon berish kerak. (Naufal va Suharti, 2020).

Rarasati va Bahval (2019) o'zlarining "Qishloq joylarda infratuzilmaviy rivojlanishni shariatga muvofiq moliyalashtirish" nomli ilmiy izlanishlari jamiyat uchun eng zarur bo'lgan infratuzilma turini aniqlash, infratuzilmani rivojlantirish uchun shariatga muvofiq jamiyatdan potentsial xayriya yoki kapital grantlarini o'rganish va jamiyat eng ko'p ishonadigan shaxs yoki tashkilotni aniqlashga qaratilgan. Ushbu tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan hududlarda qishloq aholisi uchun eng zarur infratuzilma qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish infratuzilmasi hisoblanadi. Ushbu infratuzilmani rivojlantirish xayr-ehsonlar orqali moliyalashtiriladi va mahalliy jamoat tashkilotlari tomonidan boshqariladi.

"Afrikaning Sahroi Kabirdagi davlat infratuzilmasi uchun xususiy moliyani jalg qilish: infratuzilma infratuzilma fondlari va islomiy moliyani o'rganish" nomli maqolada ichki infratuzilmani moliyalashtirishni ochish uchun innovatsion moliyaviy mahsulotlarni qanday ishlab chiqish mumkinligini ko'rib chiqilgan. Maqolada Afrikaning Sahroi Kabir mintaqasida infratuzilmani moliyalashtirishning muqobil manbalari sifatida infratuzilma investitsiya fondlari va islomiy moliyani rivojlantirish tavsiya etilgan. Xulosa o'zrinida, davlat organiga infratuzilma uchun infratuzilma investitsiya fondlari va islomiy moliya kabi moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish uchun joy ajratish tavsiya etilgan (Avgustin Edobor va boshqalar, 2021).

"Islomiy moliya nuqtai nazaridan barqaror rivojlanish va infratuzilma" nomli o'quv qo'llanmada barqaror rivojlanish maqsadlari uchun islom moliyasi, vaqt o'tishi bilan bog'liq muammolar bo'yicha Islom va an'anaviy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, Islom davlat-xususiy sheriklik loyihalari uchun infratuzilma tarmoqlarini aniqlash, kichik va o'rta korxonalar uchun barqaror islomiy moliya, iqtisodiy imkoniyatlarni kuchaytirish, zakot, vaqf va ijtimoiy infratuzilma, energetika sektori infratuzilmasini rivojlantirishga islomiy yondashuv va infratuzilma loyihalari uchun adolatli va mos biznes modellarini aniqlash o'rganilgan. Ushbu o'quv qo'llanmaning maqsadi rivojlanish banki sohasida o'n yillik real tajribaga asoslangan holda infratuzilmani rivojlantirish va barqaror rivojlanishning yana bir jihatini chuqur ko'rib chiqish va islom iqtisodiyoti va moliyasining hikmatlari asosida samarali aralashuvlarni taklif qilish (Amadu Tierno Diallo va boshqalar, 2021).

### **Xulosa va takliflar.**

Islom moliyasini mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy qilishda va islomiy qimmatli qog'ozlarni chiqarishda o'ziga xos risklarni inobatga olgan holda jahon tajribasini, jumladan yaqin sharq mamlakatlari tajribalarini o'rgangan holda, mukammal huquqiy asos ishlab chiqish kerak deb hisoblaymiz. Yuqorida olimlarning ilmiy ishlarini o'rgangan holda shuni ham aytish mumkinki islom banklar ham risklardan holi emas va bu o'z navbatida jahon tajribasini mamlakatimizga mos qismlarini olishimiz kerak ekanligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi sahifa ochilishi va yanada rivojlanishiga o'zini tasirini o'tkazadi.

Islom moliyasi va loyihalarni islomiy moliyalashtirish bo'yicha ilmiy adabiyotlar va bugungi kundagi rivojlanish tendensiyalari hamda taklif etilayotgan yangi moliyaviy instrumentlarning ortib borishi kelgusida amalga oshirish lozim bo'lgan ilmiy izlanishlarni yanada ko'paytirish zaruratini borligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari xulosa qilib musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalg etish ayni muddaodir. Buning uchun milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida sherikchilikka asoslangan yoki

islomiy moliyalashtirishni joriy etish uchun shunga mos qonunchilik, huquqiy asos shakllantirilishi lozim. Bu o'z navbatida davlatimizga qo'shimcha kapital kirib kelishiga hamda muqobil moliyalashtirish mexanzmlarini taklif etishga zamin yaratadi.

### **Adabiyotlar / Литература / Reference:**

*Alan J. Alexander. (2011) Shifting title and risk: Islamic project finance with western partners. 4/5/2011*

*Aliya Nurul Huda. (2012) The Development of Islamic Financing Scheme for SMEs in a Developing Country: The Indonesian Case. Procedia - Social and Behavioral Sciences 52 (2012) 179 – 186*

*Amadou Thierno Diallo, (2021) Sustainable Development and Infrastructure, An Islamic Finance Perspective*

*Augustine Edobor Arimoro. (2022) Raising private finance for public infrastructure in Sub-Saharan Africa: Exploring Infrastructure Mutual Funds and Islamic Finance, Jurnal of Islamic economics and business studies. Vol 7. N1*

*Ayomi Dita Rarasatia, Bambang Trigunarsyah. (2013) Sharia-Compliant Financing in Indonesia Infrastructure Projects, Proceeding of the 13th International Conference on QIR (Quality in Research) Yogyakarta, Indonesia, 25-28*

*Ayomi Rarasati. (2018) Islamic financing for infrastructure projects and its implementation barriers, MATEC Web of Conferences 270, 06005*

*Bayauletov. E.A (2019) Islom moliya asoslari. O'quv qo'llanma*

*Heiko Hesse., Andreas A. (2008) Trends and Challenges in Islamic Finance, World economics. Vol. 9 №2*

*Eka Vahyu Hestya Budianto (2023), Bibliometric And Literature Review Of Financing Risk In Islamic Banking, Jurnal Perbankan Syariah-Vol. 4, Iss: 1, pp 79-97*

*Jean-Yves Moisseron. (2015) Islamic Finance: A Review of The Literature, International Business & Economics Research Journal. Volume 14, Number 5*

*Juan Ketterer. (2018) Financing Infrastructure, Department of Research and Chief Economist. IDB-DP-622*

*Muhammad Ridhwan., Nur Syazwani Binti Khalid (2021) A Review on literatures of Islamic financial intuitions and market between 2010-2020, Library Philosophy and Practice(e-journal).5029*

*Mohamad Torik Langlang Buana., Nuradli Ridzwan Shah M. (2023) A review of articles on infrastructure contractors financing in the Islamic banking, Jurnal Ilmiah MEA (Manajemen, Ekonomi, dan Akuntansi) Vol. 7 No. 1*

*Nadeem Ul Haque., Abbas Mirakhor. (1998) The Design of Instruments for Government Finance in an Islamic Economy, International monetary fund WP/98/54*

*Naufal M.D. and Suharti S. (2020) The development of sharia capital markets and its role in financing the government projects, IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 592*

*Nor Amila Wan Abdullah Zawavia., Mahadi Ahmadb. (2013) Financing PF2 Projects: Opportunities for Islamic Project Finance Islom. Procedia Engineering. doi: 10.1016/j.proeng. 2014.07.015*

*Paolo Pietro Biancone, (2015) Using Islamic Finance for Infrastructure Projects in Non-Muslim Countries, European Journal of Islamic Finance. ISSN 2421-2172*

*Rarasati A.D., Bahwal F.F. (2019) Sharia-compliant Financing of Infrastructure Development in Rural Area. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. Sci. 258*

*Rishad Sadikot. (2012) Islamic Project Finance: Shari'a Compliant Financing of Large Scale Infrastructure Projects, The Fletcher School – al Nakhlah – Tufts University*

*Траченко М.Б., Алхассан Т.Ф. (2016) Исламские инструменты финансирования малых и средних предприятий: проблемы и перспективы, Государственное управление. Электронный вестник Выпуск № 58.*